

DEVELOPING STUDENT LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF ARTISTICAL ANALYSIS OF APPLIED ARTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Khasanov Oybek Abdusalolovich.

Namangan State University. 2nd year master's degree in fine and applied arts

Annotation: This article is a summary of general concepts about the development of students' logical thinking in the process of artistic analysis of works of applied art in higher education.

Keywords. Image, method, technology, book art, sage, imagination, situation, shape, line, logic, symbolic language, reality, giggle, artistic analysis, symbol, emblem, fine arts, graphics.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARDA AMALIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAXLIL QILISH JARAYONIDA TALABALARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH.

Xasanov Oybek Abdusalolovich.

Namangan davlat Universiteti. Tasviriy va amaliy bezak san'ati 2-kurs magistranti

Annatatsiya: Mazkur maqola, Oliy ta'lim muassasalarida amaliy san'at asarlarni badiiy taxlil qilish jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish haqida bo'lib umumiy tushunchalar qisqacha ma'lumotlar keltirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar. Tasvir, metod, texnologiya, kitobat san'ati, donishmand, xayol, holat, shakl, chiziq, mantiq, ramzilik tili, voqeylik, g'ijjak, badiiy tahlil, ramz, timsol, tasviriy san'at, grafika.

Kirish: 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amalga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir." deya bejiz ta'kidlamagan.

Ota-bobalarimizning qanday buyuk shaxslar, yetuk alloma, olim va ulamolar bo'lgani bilan faxrlanibgina qolmasdan, balki ularga munosib farzand bo'lish, olamshumul kashfiyotlar qilishga qodir xalq ekanimizni amalda isbotlashimiz ham lozim. Bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlanmalarining sifatini oshirish, pirovardida, yurtimizning ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlab, iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi. Oliy ta'limda tasviriy san'at ta'limi mazmuni va metodikasini takomillashtirish orqali uning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim tendensiyalari, texnologik yondashuvlar bilan birga ta'lim-tarbiya borasida to'plangan ko'p asrlik qadriyatlar, milliy-tarixiy an'analardan ham foydalanib kelinmoqda. O'zbekistonning ilm va fan, madaniyat va san'ati tarixida barcha zamonlar uchun o'zining badiiy-estetik qiymatini yo'qotmaydigan, ayniqsa, yillar va asrlar osha ma'naviy nufuzini oshirib boruvchi manbalar mavjud. Kitobat san'ati umumiy Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi bo'limida va badiiy ta'lim oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at tarixi darslarida belgilab qo'yilgan. Talabalarga analiz, sintez va xulosalar chiqarish chuqur o'rgatiladi. Ming afsuski, hattoki o'qituvchilarimiz tasviriy san'at asarlarini ko'rsalar-da uning mazmun-mohiyatini to'liq tushuna olmaydilar. Shuning uchun biz "Donishmand" nomli

kitob grafikasiga oid grafik ishni tasviriy san'at faniga moslab biz ishlab chiqqan "Badiiy tahlil" metodidan foydalanamiz. Yaratilgan "Badiiy tahlil" metodida o'quvchilar jamoa va yakka tartibda qatnashadi.

Asosiy qism: Talabalar tasviriy va amaliy san'at asarlarini badiiy, mantiqiy, falsafiy, psixologik, astrologik kabi tahlil turlarini o'rgatadi. Ushbu tahlil turlaridan biri – "Badiiy tahlil" metodida biron kompozitsiyasini tahlil qilib o'rgatiladi. Tahlil qilishda oddiy jadval asosida bir tomoniga kompozitsiya bo'laklari nomi yozib boriladi va ikkinchi tomoniga ramziy ma'nosi yoziladi. Jadvallar asosida yakka holda 2 ta yoki guruhlariga bo'linib berilgan naqsh kompozitsiyasi yoki tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qiladilar. Musobaqa asosida guruhlariga ball qo'yib boriladi va eng yaxshisi rag'batlantiriladi. Asarlar mantiqiy, falsafiy, psixologik usullarda tahlil qilinadi. "Badiiy tahlil" metodining maqsadi dars jarayonida o'quvchilar erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, izlanishga, mustaqil bajargan ishini erkin bayon etib, o'zini o'zi baholash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, badiiy asarlarni mantiqiy fikrlashga hamda har bir javobni isboti bilan izohlashga o'rganadilar. "Badiiy tahlil" metodidan quyidagicha dars jarayonida foydalanamiz. Ushbu doira shaklidagi hoshiyali grafik tasvirda, so'qmoqda ketayotgan bir mo'ysafid yo'lda bir zum tepalikda to'xtab, tos ustida o'tirib, g'ijjak cholg'u asbobida xayolga cho'mgan holda berilib kuy chalayotgani tasvirlangan. Grafik asarga nazar solib qarasangiz musavvir chizgan rasm mantiqqa, g'oyalar tizimiga va ramzlar asosida yozilgan falsafiy va tarbiyaviy hikoyaga o'xshaydi. Musavvir hind rassomlarini uch planli kompozitsiya usulida ishlagan bo'lib, har bir plan o'z mantig'iga va yechimiga ega. Har bir plandagi voqeliklar bir-biri bilan uyg'un ishlangan bo'lib, donishmandning kuylayotgan hayot falsafasi nolasida o'z aksini topgan.

Xulosa: Quyidagi voqeliklar tasvir orqali birma-bir o'z aksini topgan. Bu tasvirlar ramz, belgi va timsollar orqali chizilgan. Asardagi har bir chiziq, shakl va ranglar orqali tasvirdagi voqelikni tasvir tili orqali o'qib, kerakli mantiqiy xulosaga kelish mumkin. Musavvirning asari orqali o'sha paytlarda inson tafakkurining teranligi, yuksaklik darajasi, ilmga va diniga bo'lgan e'tibori yuqori bo'lganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. www.uza.uz.
2. "Maorif va o'qutg'uchi". – T., 1931-yil, 1-bet.
3. Rahimova M. Psixologiya kursida ko'rsatmalik. – T.: O'qituvchi, 1981. 72-b.
4. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1967. 223-b.
5. Bulatov S., Saipova M., Xalilova F. Milliy timsollar va ramzlar ensiklopediyasi. – T.: Ta'lim nashryoti, 2018-yil, 57-bet.
6. Pedagogika. Ensiklopediya – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat nashriyoti, 2015, 1-tom, 8-bet.